

ISSN 2181-5291

# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 4, 2021

[www.psixologiyabuxdu.uz](http://www.psixologiyabuxdu.uz)





**Nazarova Manzura Mustafa qizi,**  
Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasи o'qituvchisi.

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY TIL OMILI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuvning milliy tilga, shuningdek, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'siri, globallashuv jarayoni sharoitida yoshlarda ma'nnaviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, ularni ma'nnaviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish masalalari haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** globalizm, axborot, milliy til, xalqaro til, axborot texnologiyalari

**Аннотация:** В данной статье освещены вопросы влияния глобализации на национальный язык, а также на социальные, политические и экономические процессы, формирования у молодежи иммунитета к духовным угрозам в условиях процесса глобализации, систематического ознакомления с образцами нашего духовного наследия.

**Ключевые слова:** глобализм, информация, национальный язык, международный язык, информационные технологии

**Annotation:** this article covers the impact of globalisation on the national language, as well as social, political and economic processes, the formation of immunities against spiritual threats in young people in the context of the globalisation process, regularly introducing them to samples of our spiritual heritage.

**Keywords:** globalization, Information, national language, international language, information technology

**Mavzuning dolzarbliji:** Hozirgi kunda globallashuv jarayoni xususida ko'plab ta'rif berilmoqda. Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T. Levittning 1983-yildagi "Garvard biznes revyu" jurnalida e'lon qilingan maqolasida qo'llanilgan edi. Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan va hozirgi davrimizga kelib bu jarayonning avj olishi ro'y bermoqda. Globallashuv – bu ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayondir. Shuningdek, xalqlarning madaniyatiga kuchli ta'sir etuvchi hodisa sifatida o'rganiladi. U dunyoda iqtisodiy integratsiyaning ijobiy omili va milliy iqtisodiyotning natijali o'zgarishga ko'makchi sifatida qabul qilingan. Globallashuv – bu, avvalo, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqeа bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas. "Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'nnaviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina ma'lumot ham axborotlashuv olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinnmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplاب bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin"<sup>1</sup>, - deya fikr bildirgan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni jamiyatning ko'p sohalariga, shu jumladan, tilga o'z ta'sirini o'tkazayotganini ko'rish mumkin. Globallashuv jarayonida til milliy madaniyat faktorining asosiy atributi sifatida maydonga chiqadi va global madaniyat faktori o'rtaga tashlayotgan yoki taqozo qilayotgan global til yo'liga qo'yilgan ilk to'siqqa aylanadi. XX asrning oxirgi choragidan boshlanib, hozirgi kunlarda ham davom etayotgan globallashuv jarayoni siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalari kabi til sohasini ham qamrab olgan bo'lib, globallashuvning milliy tilga ta'siri masalasi bugungi kundagi dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Globallashuv o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega bo'lgan murakkab jarayon sifatida, barcha sohalarda bo'lgani kabi, til sohasida ham chuqur o'ylab ko'rilgan yondashuvni talab qiladi.

Globallashuvning til bilan bog'liq jihatlarida ijobiy va salbiy tomonlari ko'zga tashlanadi:

<sup>1</sup>I.A. Karimov. Yuksak ma'nnaviyat- yengilmas kuch. -T.: Ma'nnaviyat, 2008. 112b.



1. Ijobiy jihatdan, globallashuv jarayoni muayyan tilni mintaqaviy yoki xalqaro tilga aylantirish orqali turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro muomala ko'prigi yaratadi.

2. Salbiy tomoni, mintaqaviy yoki xalqaro tillarning milliy tillarga ta'siri, jumladan, milliy tilda chet tillari leksik va boshqa unsurlarining ko'payishi, milliy tilning qo'llanish doirasining qisqarishi va hatto milliy tilning butunlay yo'qolib ketishi muammosini keltirib chiqaradi. Aytib o'tish lozimki, mintaqaviy yoki xalqaro maqomga ega bo'lgan tillarning milliy tilga ta'siri ikki yo'l orqali: birinchidan – boshqa davlatlar va xalqlar bilan muayyan mintaqaviy yoki xalqaro til vositasida muloqot (o'zaro tashriflar, uchrashuvlar, birgalikdagi yig'inlar, qo'shma dasturlar va loyihibar va boshqa qo'shma tadbirlar ko'rinishida) qilish, ikkinchidan – bugungi axborot asrida bosma va elektron axborot manbalarida mintaqaviy yoki xalqaro tillardagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa turdag'i axborotlardan foydalanish jarayonida yuz beradi. Shu o'rinda mintaqaviy va xalqaro tilning har doim ham davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarda yagona yoki asosiy aloqa tili bo'lolmasligini, bunday munosabatlarda tarjima vositasida milliy tillardan ham keng foydalanilayotganligini eslatib o'tish lozim. Biroq, globallashuv jarayonidagi milliy til bilan bog'liq muammolar faqatgina xalqaro yoki mintaqaviy tilning milliy tilga ta'siridangina iborat emas.

Bugungi kunda globallashuv ingliz tili, rus tili, nemis tili kabi jahon tillarining tarqalishini kuchaytirar ekan, boshqa ko'plab tillar yo'q bo'lib ketish xavfi ostida qolmoqda va oxir-oqibat yo'q bo'lib ketmoqda. Italiyalik tilshunoslar Nettle va Romeynlarning da'vo qilishicha, hozirgi kunda mavjud bo'lgan 5000-6000 tillar xavf ostida qolmoqda, ularning deyarli yarmi keyingi 100 yil ichida yo'q bo'lib ketishi ehtimoli borligini ta'kidlaydi. Ular bunga jamiyatga ta'sir ko'rsatadigan turli xil bosimlar, shu jumladan, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va harbiy talablarni sabab qilib ko'rsatadi. "Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan til boshqa til bilan almashtirilganda paydo bo'ladi va jamiyatdagi vazifalarini o'z zimmasiga oladi", -deydi Nettle.

Tillarning nima uchun va qanday yo'qolishining sabablarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Aholi sonining kamayishi
2. Tillarning majburiy o'zgarishi
3. Tillarning ixtiyoriy o'zgarishi

Qachonki dominant madaniyat boshqa birovning tilini, xatti-harakatlarini va boshqalarni almashtira boshlasa, fransuz lingvisti Krystal tomonidan ishlataladigan atama "madaniy assimilyatsiya" jarayoni ro'y beradi. Krystal ma'lumotlariga ko'ra, "madaniy assimilyatsiya" jarayoni 3 bosqichda kechadi: Dastlab, odamlarning eng ko'p qatlami dominant tilda so'zlashadilar. Keyin odamlar yangi tilni o'rgana boshlagach, ikki tillilik paydo bo'ladi, odamlar o'zining mavjud dominant tili bilan birgalikda yangi kirib kelgan tilni ham baravar ishlata boshlaydi. Nihoyat, 3-bosqichda mavjud dominant til asta-sekin yo'qolib boradi, faqatgina keksa avlod vakillari bu tildan ko'proq foydalanadi, o'sib kelayotgan yosh avlod esa, eski tildan ko'ra yangi kirib kelgan tilni foydali ekanligiga ishonishadi va aksariyat hollarda aynan o'sha tilda muloqotni amalga oshirishadi.

Mutaxassislarining aniqlashlaricha, globallashuvning qudratli to'lqinlari dunyodagi 2000 ga yaqin millat va elatlarning milliy tilini "yuvib ketishi" ehtimoli bor ekan. Ma'lumki, milliy til dunyodagi ko'pgina mamlakatlarning davlat tili ham hisoblanadi. Demak, agar milliy til "yuvilib" ketsa, "davlat tili" degan tushuncha ham o'z-o'zidan yo'qolib ketishi mumkin ekan-da?

Axborot texnologiyalari katta sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan, turli tillardagi turli adabiyotlarni milliy tilga tarjima qilish hajmi o'tgan davrlarga nisbatan keskin oshib borayotgan bugungi kunda tarjimaning ham milliy tilga bo'lgan ta'sirini unutmaslik lozim. Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, jahonga yuz ochgan, turli davlatlar bilan keng miqyosli munosabatlar o'rnatgan, jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi va uzviy bir qismiga aylanib borayotgan, natijada esa globallashuv jarayonida bevosita ishtirok etayotgan bugungi kunda, birinchidan, o'zbek tilining O'zbekiston Respublikasidagi davlat, millatlararo muomala, biznes, madaniyat va ilm-fan tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash, ikkinchidan, o'zbek tiliga boshqa tillarning leksik va stilistik unsurlarining keng kirib kelishini oldini olish orqali ona tilimiz sofligini saqlash dolzarb masalalar jumlasiga kiradi. Ulug' ma'rifatparvarimiz Abdulla Avloniy o'zining "Hifzi lison", ya'ni, "tilni saqlash" nomli maqolasida birinchi navbatda ona tili – milliy tilni saqlash muammosini nazarda tutgan. U bu haqida shunday yozadi: "Hifzi lison deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotini(ng) saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va



adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”<sup>1</sup>. Mamlakatimizda xorijiy tillarni bilish darajasi kundan-kunga oshib borayotgan bugungi davrda yurtdoshlarimizning ona tilimiz bilan bir qatorda xorijiy tillardagi turli, jumladan, iqtisodiy va ilmiy axborotlardan keng foydalanishlari oddiy holga aylanib bormoqda. Xorijiy tillarni bilish darajasining oshib borayotganligi o‘zbek tilidagi manbalarning boshqa tillarga tarjima qilish hajmining ham oshib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa nafaqat xalqimizning jahon bilan yaqindan tanishishiga, balki, yurtimizning jahonga keng tanitilishiga ham olib kelmoqda. Bu borada hukumatimizning o‘quv yurtlarida xorijiy tillarni o‘rgatishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlari muhim o‘rin tutmoqda. Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan davlat tilining mavqeini va nufuzini yanada oshirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 21 oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoniga binoan 21 oktyabr sanasi “O‘zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Hukumatimizning o‘zbek tilining nafaqat davlat tili, balki, iqtisod, madaniyat va ilm-fan tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash borasida olib borayotgan siyosati tufayli hozirgi kunda globallashuvning milliy tilimizga jiddiy salbiy ta’siri kuzatilmayotgan bo‘lsa-da, keljakda yuz berishi mumkin bo‘lgan bunday ta’sirning oldini olish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz:

1. O‘zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi mavqeini doimiy ravishda mustahkamlab borish, uni nafaqat davlat tili, balki, to‘laqonli iqtisodiy, madaniy va ilmiy tilga ham aylantirish, buning uchun o‘zbek tilida yaratiladigan siyosi, iqtisodiy, madaniy va ilmiy adabiyotlar sonini ko‘paytirish.

2. Xorijiy, jumladan, xalqaro tillarning qo‘llanilish sohasini faqatgina xorijiy davlatlar vakillari bilan bo‘lgan munosabatlар bilan cheklash hamda bunday tillarni mamlakatimizning ichki hayotida, mamlakatimiz subyektlari o‘rtasidagi aloqa tili bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik.

3. Chet tillardan o‘zbek tiliga o‘zlashayotgan so‘zlar, iboralar va atamalar sonini maksimum darajada kamaytirish, ularning o‘zbekcha muqobillarini topish, yaratish va muomalaga kiritish lozim bo‘ladi. Boshqacha aytganda, o‘zbek tilining terminologik immunitetini oshirish masalasiga jiddiyroq e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. Zero, terminologiyasi yetarli darajada shakllanmagan va rivojlanmagan til, tabiiyki, globallashuv sharoitida qudratli tillarning “yordam”iga muhtoj bo‘lib qoladi. Har qanday muhtojlik esa oxir-oqibat tobelikka olib boradi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha aniq va izchil chora-tadbirlar amalga oshirilgan taqdirda davlat tilimiz xorijiy, jumladan, xalqaro tillar ta’siriga tushib qolmaydi, uning mamlakatimizdagи qo‘llanuv doirasi qisqarmaydi ham. Ana shundagina biz globallashuvning taraqqiyotga xizmat qiluvchi ijobiy jihatlaridan samarali foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘la olishimiz mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, jahonga yuz ochgan, turli davlatlar bilan keng miqyosli munosabatlар o‘rnatgan, jahon hamjamiatining teng huquqli a’zosi va uzviy bir qismiga aylanib borayotgan, natijada esa globallashuv jarayonida bevosita ishtirok etayotgan bugungi kunda, birinchidan, o‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasidagi davlat, millatlararo muomala, biznes, madaniyat va ilm-fan tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash, ikkinchidan, o‘zbek tiliga boshqa tillarning leksik va stilistik unsurlarining keng kirib kelishining oldini olish orqali ona tilimiz sofligini saqlash dolzarb masalalar jumlasiga kiradi.

Globallashuv jarayonida o‘zbek tiliga ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan tillar to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, bugungi kunda sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda rus tili mintaqaviy til maqomini saqlab turganligi, ingliz tilining esa mazkur davlatlar uchun xalqaro til mavqeini to‘la egallab bo‘lganligini eslatish lozim. Ya’ni, bugungi kunda O‘zbekiston va o‘zbek xalqining boshqa davlatlar va xalqlar bilan munosabatlari – o‘zaro tashriflari, uchrashuvlari, birgalikdagi yig‘inlari, qo‘shma dasturlari va loyihalari hamda boshqa qo‘shma tadbirlari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi hududida asosan, rus tilida, ushbu mintaqadan tashqarida esa asosan, ingliz tilida amalga oshmoqda. Biroq, yuqorida aytib o‘tilganidek, rus va ingliz tillari har doim ham mintaqada davlatlari va xalqlarining o‘zaro munosabatlarda yagona yoki asosiy aloqa tili bo‘lib qolayotgani yo‘q. Bugungi kunda O‘zbekistonning bir qator davlatlar, jumladan, Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan aloqalarida milliy tilimiz – o‘zbek tili tarjima vositasida keng

<sup>1</sup>Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. – T.: “Ma’naviyat”, 2006. 61b



qo'llanilmoqda. Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, globallashuv sharoitida davlatimizning boshqa davlatlar bilan munosabatlarida ona tilimizning qo'llanilishi o'sha davlatlar tillarini yaxshi biluvchi professional o'zbek tarjimonlariga ega bo'lishimizga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizning boshqa davlatlar va xalqlar bilan bo'lgan munosabatlarida bo'lgani kabi, mamlakatimiz aholisining xorijiy va xalqaro bosma hamda elektron axborot manbalaridagi turli siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa turdag'i axborotlardan foydalanishida ham rus va ingлиз tillarining salmog'i katta ekanligi kuzatilmoqda. Shuning bilan birgalikda ko'plab Yevropa (fransuz, nemis, italyan, ispan va hokazo.) va Osiyo (xitoy, yapon, koreys, turk, arab, fors, hind, urdu va hokazo.) tillaridan o'zbek tiliga ko'plab badiiy va ilmiy tarjimalar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston aholisining xorijiy tillarni o'rganishi, birinchidan, jahon xalqlari bilan iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarning rivojlanishiga, ikkinchidan, xorijiy va xalqaro bosma hamda elektron axborot manbalaridagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa turdag'i axborotlardan foydalanish imkoniyatining kengayishiga sabab bo'ladi.


Jahon axborot maydonini tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarning ongini faqat o'rab – chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabi ham, bizning ezgu maqsad – muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yanmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz. Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql – idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi<sup>1</sup>.

Hozirgi vaqtida axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisol balo – qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda. Hozirgi vaqtida ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot – kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Albatta, bu jarayonlardan ko'z yumib bo'lmaydi. Muammoning qay darajadaligidan qat'iy nazar uning oldini olish, bunga qarshi kurashish choralarini izlash bizning oldimizda turgan vazifadir. *Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.* Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki, ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo'lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsuli esa buning tamomila aksidir. Globallashuv jarayonida shaxsda kechadigan ruhiy holatlarni o'rganish maqsadida amerikalik psixologlar A.E.Uesman va D.F.Riks tomonidan ishlab chiqilgan "O'z-o'zidagi hissiy holatni baholash" usulidan foydalangan holda har bir shaxsning u yoki bu faoliyati jarayonida namoyon bo'layotgan ichki hissiy kechinmalari tadqiq qilindi va quyidagi natijalar qo'lga kiritildi:

Nº	Shaxslarning hissiy holati haqidagi tasavvurlarni tahlili	Sinaluvchilarining soni	%
1	Hissiy faollik	10	25 %
2	Hissiy ko'tarinkilik	15	38 %
3	G'ayrat shijoatlilik	10	25 %
4	Xotirjamlik	5	12%
$\Sigma$		40	100 %

<sup>1</sup>S.Otamurodov. Globallashuv va milliy – ma'naviy xavfsizlik. T., "O'zbekiston", 2015, 266 b



Globallashuv jarayonida tahdidlar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, u barcha sohalarda bo'lgani kabi ma'naviyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ammo, dunyoda axborot almashinuvining o'sishi bilan u madaniyat, ilm-fan sohasiga ham kirib keldi. Natijada millat madaniyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy tahdidlar insoniyat oldiga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chetdan kirib kelayotgan, mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlар ongini individualizm, egotsentrism g'oyalari bilan zaharlovchi ushbu ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishimiz zarur. Beba ho boyligimiz milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirgan holda ma'naviy tahdidlarni oldini olishga erishishimiz mumkin. Ma'naviyat haqida gap ketganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, u eng avvalo, millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. Shunday ekan globallashuv jarayonida mamlakat milliy madaniyatiga rahna soluvchi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda insonlarni yuksak ma'naviyatli bo'lishi muhim omil hisoblanadi. Buning uchun jamiyatda ma'naviy-mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish zarur. Ya'ni, birinchidan, mamlakat kelajagi bo'l mish yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish; ikkinchidan, manaviy tahdidlarni aynan nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab yetish; uchinchidan, atrofimizda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga befarq bo'lmasdan, dahldorlik hissini oshirish.

**Xulosa:** Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinxaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahidlarning bir ko'rinishi bo'lgan "ommaviy madaniyat" niqobidagi tazyiqlarning yoshlар ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf soladi, inson ma'naviy kamolotiga ulkan zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Bunda:

- ularda, turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;
- yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;
- yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Shundagina biz yoshlарimizni, shu bilan birga xalqimizni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantira olamiz.

### Adabiyotlar:

- 1.I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. 112b
- 2.Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. – T.: "Ma'naviyat", 2006. 61b
- 3.S.Otamurodov. Globallashuv va milliy – ma'naviy xavfsizlik. T., "O'zbekiston", 2015, 266 b
- 4.N.Umarova. Globallashuv sharoitida axborot hurujlariga qarshi kurash. T.:Akademiya, 2005, 25-26 b



3	<b>Баратов Шариф Рамазонович</b> Психолог хизмат ижтимоий – психолог муаммо сифатида
9	<b>Хусейнова Абира Амановна</b> Ўзбекистонда оиласларнинг мустаҳкамлигига қаратилган ижтимоий-демографик тадқиқотлар ва оиласнинг ижтимоий функциялари
15	<b>Усманова Манзура Наимовна</b> Эмпирическое исследование темперамента личности в профессиональной деятельности педагога
22	<b>Собирова Дилафуроз Абдуразикова</b> Тиббиёт ходимларида ижтимоий компетенция омилларини шаклланишнинг ижтимоий-психологик асослари
28	<b>Назаров Акмал Мардонович, Нурсатова Мехринисо Бахшишллоевна</b> Спортчи талабаларда психологик ҳимоя механизмларини ривожлантириш ва такомиллаштиришнинг ўзига хос усуслари
32	<b>Олимов Лазиз Ярашович, Махмудова Зулфия Мехмоновна</b> Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-автор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари
40	<b>Жумаев Улугбек Сатторович</b> Параметры межкультурных различий: теории Г.Хофстеде
45	<b>Останов Шухрат Шарифович</b> Талабаларда креативлик хусусиятларини намоён бўлишининг ўзига хос психологик жиҳатлари
49	<b>Рустамов Шавкат Шухратович</b> Амалиётчи психологларнинг математик касбий компетентлигини касбий фаолият доирасида тадқиқ этилиши
53	<b>Nazarova Manzura Mustafo qizi</b> Globallashuv jarayonida milliy til omili
58	<b>Ахмедова Зарина Джамиловна</b> Ўсмирларда жиноят мотивлари шаклланишини ўрганиш психологик тадқиқот муаммоси сифатида
62	<b>Аъзамова Махлиё Абдурахимовна</b> Махаллада психологик хизмат қўрсатишнинг эмпирик асослари
67	<b>Остонов Жасур Шониржонович</b> Ўсмирларда психологик ҳимоя ва копинг хулқ-автор омиллари намоён бўлишининг ўзига хос хусусиятлари
76	<b>Собиров Абдулазиз Абдуразикович</b> Психологические защитные факторы проявляющийся у спортсменов
80	<b>Тилавов Мухтар Ҳасан ўғли, Болтаев Суннат Баҳтиёр ўғли</b> Тадбиркорлик фаолияти мотивациясининг этнопсихологик хусусиятларини ўрганиш дастури ва тадқиқот натижалари
85	<b>Рўзиев Умар Музаффарович</b>



	Ўспириналарда ижтимоий фобия намоён этилишининг психологик белгилари
89	<b>Ҳакимова Фазолат Хошимовна</b> Мослаша олмаслик хусусиятларининг мактабгача ва кичик мабтаб ёшидаги болаларда турли психологик кўринишлари
92	<b>Ғайбуллаев Алишер Асадович</b> Спортчиларда ҳиссий-иродавий сифатлар шаклланишининг психологик механизmlари
96	<b>Турахонов Абдукарим Эшқузиеевич</b> Касбий масъулият ва шахслик хусусиятлари ўртасидаги ўзаро алоқадорлик жиҳатлари
104	<b>Кулиев Ёркин Каримович</b> Психологические особенности саморазвития преподавателей учебных заведений
108	<b>Ermatova Gulnoz Pirimovna</b> Mutafakkirlarimiz asarlarida xalq og`zaki ijodiyoti asosida bola sotsial intellektini shakllantirish masalalarining yoritilishi
114	<b>Қабулов Қосимбай Пиржонович,</b> Касб танлаш мотивациясининг ижтимоий-психологик хусусиятлари
118	<b>Ахмедова Максуда Лочиновна</b> Ўкувчиларда ўзбек мусиқа фольклор хақидаги тасаввурларни шакллантиришнинг психологик имкониятлари
	<b>ҚУТЛОВ</b>
121	<b>Баротова Диляфруз Шарифовна</b>